

RESEARCH ARTICLE

Traditions Of Gaybulla As-Salom In Contemporary Translation Studies Research

Zohid Sadiqov

Professor, DSc, Namangan State University Namangan, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 07-11

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article examines the traditions of the outstanding Uzbek scholar, Doctor of Philology, and Professor Gaibulla Salomov in modern translation studies.

KEY WORDS

modern translation studies, comparative typological approach, methodological adaptation, literary text, contextual-comparative analysis, artistry.

INTRODUCTION

Ma'lumki, mamlakatimizda tarjimashunoslik fani o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. 80-90-yillarga kelib, bu soha yutuqlari O'zbekiston, qolaversa Markaziy Osiya va hatto sobiq ittifoq respublikalarida ham keng e'tirof etilgan o'ziga xos tarjima maktabi darajasiga ko'tarildi. Uning asoschisi hammamizga ma'lum, O'zbekiston Fan Arbobi, filologiya fanlari doktori, professor G'aybulla Salomov bo'ldi. Domlanning hayotligi cho'g'idayoq uning qiyosiy-tipologik va uslubiy moslashtirishga asoslangan tarjimashunoslik maktabi an'analari davom ettiradigan bir qator fan doktori va fan nomzodlari yetishib chiqishdi. Xususan, fan doktorlaridan Najmiddin Komilov (XIX asr Xorazm tarjima maktabi), Komiljon Jo'rayev (She'riy tarjimalarni komparativistika asnosida o'rganish), Muhabbat Baqoyeva (Shekspir asarlarini inglizchadan o'g'irishda she'riy vazn va qofiya muammolari), Ne'matilla Otajonov ("Boburnoma" tarjimalarining jahon adabiy jarayonida o'rganilishi), Hamidilla Karomatov (O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari va uning tarjimalari muammosi), shuningdek, Ustozning bilvosita shogirdlaridan Xayrulla Hamidovning o'zbek nasriy asarlarini turk tiliga tarjimalari borasidagi DSc ishini hami aytish mumkin. Fan nomzodlari sirasida Ra'no Fayzullayeva (Badiiy tarjima va milliy kolorit), Tilak Jo'ra (Aziz Nesinning o'zbekcha she'riy tarjimalari), Absalom Umarov (Abdulla Qahhor tarjimon mahorati),

Zuhriddin Isomiddinov ("Manas"ning o'zbekcha tarjimasi va yaqin turkiy tillardan tarjima muammolari), O'ktamali Nurmatov (Shiller o'zbek tilida), Salim Jabborov (Gyoete "G'arbu Sharq" devoni o'zbekcha tarjimasi va adabiy sitez masalalari), Muzaffar Bozorov (Tarjimonning soxta do'stlari muammosi), Samad Azimov (Tarjima va zullisonaynlik), G'ulom Xo'jayev (O'zbek mumtoz asarlarini nemis tiliga tarjimalarida individual uslub masalasi), Xonimqul Tojiyev (Shekspir sonetlari tarjimasi muammolari), Zoxid Sodiqov ("Qutadg'u bilig" nemischa tarjimaviy talqinlari), Odiljon Safarov (Nemis tarjimashunoslik maktablari an'analari) kabi o'nlab sof tarjimashunos olimlar yetishib chiqishdi. Ularning ko'pchiligi bugungi kunda doktorlik ishlarini ham muvaffaqiyatli yoqlab, o'zlari ham shogird tayyorlayotganliklari quvonarli, albatta. Jumladan, Najmiddin Komilov ilmiy rahbarligida o'zining nomzodlik ishini himoya qilgan Sultonmurod Olimov bugungi kunda fan doktori darajasini olish bilan birgalikda ko'plab fan nomzodlariga rahbarlik qildi. Uning shogirdi Ergash Ochilov ham qator PhD shogirdlarga rahbarlik qilmoqda. Domlanning yana bir sadoqatli shogirdi Zuhriddin Isomiddinovning ilmiy darajali shogirdlari orasida bugun Nargiza Dosbayeva doktorlik (DSc) ishini himoya qilib, professor unvonini ham oldi. Ne'matilla Otajonovning shogirdi Dildora Hoshimova ham DSc ni muvaffaqiyatli himoya qilib, "Boburnoma" tarjimalari borasida ko'plab

shogirdlar tayyorlamoqda. Kamina, Zoxid Sodiqov Dilrabo Abdurahmonova tomonidan "Boburnoma"ning Helmut Dalov amalga oshirgan yangi nemischa tarjimasiga bo'yicha PhD dissertatsiyasiga, Feruza Dadaboyevaning Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" asarining Arno Shpext qalamiga mansub nemischa tarjimasiga hamda Barno Oripova amalga oshirgan yangi nemischa nashri asosidagi qiyosiy-tipologik tadqiqot bolmish PhD dissertatsiyasiga, ushbu asarning uchta inglizcha tarjimalarida tarixiylikni qayta yaratishga oid dissertatsiya tadqiqotchi Oybek Hamdamov tomonidan, shuningdek, Mirzakalon Ismoilning ingliz adabiyotidan tarjimalariga oid PhD ishini amalga oshirgan Fotima Nuriddinovaga ilmiy rahbarlik qildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizda ilm-fanni yanada taraqqiy ettirish hamda Oliy ta'limni jahonning Top universitetlari maqomiga yaqinlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari tufayli O'zbekistonda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratilib, ularning samog'i yildan yilga oshib bormoqda. Bu boradagi statistika bevosita tarjimashunos kadrlarga ham taalluqli ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Yana bir muhim masala. Ushbu ishlarning sifatini yanada mukammallashtirishdir. Aytish kerakki, G'aybulla Salomovdan keyin u yaratgan tarjima maktabi saviyasi hali yetarli darajada Ustoz yaratgan maktab talablari hamda Jahon tarjimashunosligiga integrallashgan saviyaga ega deya olmaymiz. Boshqacha aytganda tarjimashunoslikning boshqa filologik fanlar "soyasi"da qoldirib ketish "kasalligi" yana xuruj qila boshladi. Ammo, oxirgi besh yilda 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi joriy qilingandan so'ng G'aybulla Salomovning tarjima tadqiqiga kompleks yondoshishdan chekinish sodir bo'lmoqda. Zamonaviy tarjimashunoslikda olib borilayotgan dissertatsion tadqiqotlarni ikki guruhga: sof tarjimashunoslik aspektida va qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik asnosidagi ishlarning bir qismi sifatida amalga oshirilayotgan ishlarga ajratish mumkin.

¹ Djalilova Umida Tulkinovna Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlari tilining milliy-madaniy xususiyatlari: asliyat va tarjima. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025 yil.

² Курбанова Мунаввар Эсоналиевнанинг "Бадий таржимада муаллиф услуги масаласи" мавзусида 10.00.06 – Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик ихтисослигидан филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tsak. Jumladan, yosh tadqiqotchi Jalilova Umida Tulkinovnaning „Abdulla Qahhor va Somerset Moem asarlari tilining milliy-madaniy xususiyatlari: asliyat va tarjima“ mavzusida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi¹ haqiqatdan ham OAKning bugungi talblariga javob beradi va tadqiqotchi bu borada anchagina yutuqlarga erishib, talab etilgan ilmiy darajasini oldi. Ammo sof tarjima nazariyasi va amaliyoti nuqtayi nazaridan muammoga yondoshiladigan bo'lsa, masalaning qo'yilishida qayerda qiyosiy adabiyot boshlanib, qay o'rinda tarjimashunoslik tugashini bilish mushkullik tug'diradi.

Qurbanova Munavvar Esonaliyevnaning "Badiiy tarjimada muallif uslubi masalasi (Shekspir asarlarining o'zbekcha tarjimalari misolida)" mavzusidagi PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyada² ham ana shunday muammolar ko'zga tashlanadi. Jumladan, Dissertatsiyaning birinchi bobida "mutarjim asliyatga o'zgartirish kiritishi mumkin" deilgan fikr munozarali masala. Chunki asliyat o'zgarmas. Uni shuning uchun ham original asar deyiladi. Tarjima esa, tabiiyki o'zgaruvchan bo'ladi. Tarjimonning esa, asliyatni o'zgartirishga haqqi yo'q. Bunga faqat asliyat muallfi haqlidir. Ushbu ishda dissertatsiyaning O'zbekistonda shekspirshunoslik va unda G'aybulla Salomov roli haqidagi yana boshqa ko'plab tadqiqotlarni chuqurroq o'rganishi lozimligini tavsiya etgan bo'lardik.

Nabiyeva Gulbahor Akbaraliyevnaning „Tarjima asarining lingvokulturologik tadqiqi (G'. G'ulomning "Shum bola" asarining nemis tilidagi tarjimasiga misolida)" mavzuyida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) olmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasida³ tarjima asarini zamonaviy tilshunoslikning lingvokulturologik asnosida tadqiqot olib borilgan. Ammo, har qanday til biluvchi ham tarjima bilan shug'ullanavermasligi, bu jihat ayniqsa, badiiy tarjimaga

(PhD) илмий даражасини олиш учун ёзган диссертацияси. – Тошкент, 2022 йил.

³ G'. G'ulomning "Shum bola" asarining nemis tilidagi tarjimasiga misolida)" mavzuyida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) olmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi. Andijon davlat chet tillar instituti. – Andijon, 2025 yil.

daxldor ekanligi muammosiga chuqurroq yondoshish lizim bo'ladi. Bilaks mamlakatimizda tarjimashunoslik borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning, xususan, PhD ishlarining ko'pchiligida diqqat markazda tarjima muammolari turishiga qaramay, uni tilshunoslikning bir qismi sifatida qarash tamoyili davom hanuz etayotganligi sezilib qolmoqda. Ushbu ishda ham shu jihat ko'zga tashlanadi. Qiyosiy tahlilda aslyat va tarjimaning o'zaro muqobilligiga munosabat bildirishda dissertant badiiy matn bilan ish ko'rayotganligini unutmashligi kerak. Ishda kontekstual qiyosiy tahlil amalga oshirilgan bo'lsada, qiyosga olingan milliy bo'yoqli so'zlarning asardagi badiiyligni ta'minlashdagi o'rniga ham ahamiyat berib ketilsa, ishning nazariy va amaliy qimmati yanada oshgan bo'lardi.

Nurullayev Xasan To'xtayevichning 10.00.06- Qiyosiy adabiyotshunoslik, cliog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "Nemis va o'zbek tillari somatik frazeologizmlarining lingvomadaniy xususiyatlari" mavzusidagi PhD dissertatsiya-sida⁴ ham tarjima masalasiga faqat bir bobda munosabat bildirilgan. Ilmiy ishda frazeologizmlarni tarjima qilishda faqat ularning obrazli tamsiliy asoslari aynan muvofiq keladigan variantlar bilan o'g'irish bir qadar ma'noviy siljish hodisasi sodir bo'lishiga olib kelgan. Shuningdek, frazeologizmlar tarjimasi masalasida shu sohaning yetuk ustozlari, nazariyotchi olimlar A. Fedorov va G'. Salomov qarashlariga tayanish lozim deb hisoblaymiz. Shuningdek, Raxmonberdiyeva Saida Abdulmuxamat qizining „Ingliz va o'zbek tillarida bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid leksik birliklarning semantik xususiyatlari va tarjima muammolari“ mavzuyida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasida⁵ iningliz va o'zbek tillarida bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid leksik birliklarning semantik xususiyatlarini hamda ularni tarjima qilishi masalasini o'rga-nish maqsad qilingan. Tadqiqotda tarjimashunoslik faniga til-

shunoslikning bir qismi sifatida qarash tendensiyasi ustunlik qiladi. Ammo tarjimashunoslik tilshunoslik va adabiyotshunoslikka asoslangan mustaqil umumfilologik fan ekanligini e'tiborga olish lozim, deb o'ylaymiz. Shuningdek, O'rta asrlarda yashab ijos etgan bir qator allomalarimizning tarjima asaslari yaratganliklari haqida munozarali fikr bildirilgan (71-bet). Bizningcha, ularning tarjimaga munosabat-lari borasida yozilsa, to'g'ri bo'lardi.

Gavharoy Isroiljon qizining „Turizm terminologiyasining sistem-struktur va antroposentrik tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida) mavzuyida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan ishi-ning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida turizm termino-logiyasining sistem-struktur va antroposentrik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat etib belgilangan bo'lsada, uning bitta bobi tarjima muammolariga bag'ishlangan. Aniqrog'i, dissertatsiya 4-bobida turizm terminlarining tarjimasi va turistlar bilan ishlaydigan gid-tarjimonga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilib, tar-jiamshunoslikka oid bir qator mulohazalar ilgari surilgan. Biz-ningcha, bunda muosabatni tarjimaning ana shu sohaga oid nazariy tadqiqotlari bilan kengroq asoslab berilsa, ishning ilmiy-amaliy qimmati yanada oshgan bo'lardi. Bundan tashqari, bu yerda ham sof tarjimaviy tahlil masalasi ko'ndalang bo'lib, tarjimaning nazariy jihatlarini yana qiyosiy tilshunoslik tarkibiga kiritib yuborilganligini ko'rishimiz mumkin.

Tarjimashunoslikka yana qiyosiy tilshunoslikning bir qismi sifatida qaralgan PhD tadqiqotlar sirasiga Ubaydullayeva Durdona Raxmonjon qizining „Shart komponentli gipotaksemlarning lingvokognitiv va lingvokulturologik jihatlarini hamda tarjima muammolari“ mav-zuyida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi⁶ni kiritish mumkin. Dissertatsiya

⁴ Nurullayev Xasan To'xtayevichning 10.00.06- Qiyosiy adabiyotshunoslik, cliog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan "Nemis va o'zbek tillari somatik frazeologizmlarining lingvomadaniy xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya. – Toshkent, 2023 yil.

⁵ Raxmonberdiyeva Saida Abdulmuxamat qizining „Ingliz va o'zbek tillarida bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid leksik birliklarning

semantik xususiyatlari va tarjima muammolari“ mavzuyida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi. – Namangan, 2025 yil.

⁶ Ubaydullayeva Durdona Raxmonjon qizining „Shart komponentli gipotaksemlarning lingvo-kognitiv va lingvokulturologik jihatlarini hamda tarjima muammolari“ mavzuyida 10.00.06 – Qi-yosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma

mavzusi, maqsad va vazifalarida tadqiqotga olingan ob'ektning lingvokognitiv va lingvokulturologik hamda tarjimaviy jihatlarini tadqiq etish rejalashtirilgan. Ammo tadqiqot kirish qismi mavzuning dolzarbligi bandida, asosan, uning lingvokognitiv va lingvokulturologik tomonlariga urg'u berilgan. Bizningcha, ana shu joyda mavzuning tarjimaviy as-noda o'rganishning muhimligiga ham e'tibor qaratib ketilsa, yanada yaxshi bolardi. Xuddi shu jihat muammoning o'rganilganlik darajasi qismiga ham taalluqli. Chunki, ingliz-o'zbek tarjimachiligi grammatik muammolari borasida ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Tarjimashunoslikning qiyosiy tilshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik asosida mustaqil fan sifatida shakllanganligi ma'lum. Ammo zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik qoidalar bilan yondoshilgan tarjima tadqiqiga oid ishlar tarjimaning nazariy va amaliy rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmayapti. Keyingi yillarda G'aybulla Salomov tarjima maktabi an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirishga mone'lik qilayotgan quyidagi omillarni keltirish mumkin:

1. 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi joriy qilinganligi va unda tarjimashunoslikning keying o'rinlarga o'tib qolayotganligi.

2. Ana shu ixtisoslik talablariga javob berish yo'rig'idan himoy qilinayotgan dissertatsiyalarda tarjima masalasi ikkinchi darajali ahamiyatga aylanib borayotganligi.

3. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarjimalar sifatini oshirishga qaratilgan adabiy-tanqidiy maqolalar, vaqtli va markaziy matbuotda chiqishlarning tobora sustlashib borayotganligi. Faqatgina O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi ta'sisligida Zuhridin Isomiddinov tashabbusi bilan "Tarjima san'ati" maqolalar to'plami (7-son) yoki Xayrulla Hamidovning G'aybulla Salomov kitoblarini lotin imlosida chop ettirganligi hamda Ustozning shogirdlari tomonidan ayrim anjumanlar va maqolalar to'plamlarining e'lon qilinayotganligi kabi ijobiy ishlarni hali yetarli deb bo'lmasligi.

4. G'aybulla Salomovning tarjimini umumdavlat va umumxalq ishiga aylantirish muhim ekanligi borasidagi o'g'itlari va amaliy ishlari tajribalaridan yanada faolroq foydalangan holda xuddi "Shekspir" asarlarining Cho'lpon va Maqsud Shayxzoda tarjimalari sabab butun respublikamizdagi turli kasb egalari qanchalik qiziqish bilan matbuot hamda televideniyada chiqishlar qilganliklari an'alarini davom ettirilmayotganligi kabilar jiddiy ta'sir etmoqda.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Ustoz G'aybulla Salomov yaratgan tarjima maktabi an'alarini bugungi kunda munosib davom ettirish uchun, avvalo, uning asarlarini

qimmatli maqola va tadqiqotlarini puxta o'rganishimiz lozim. Hamonki, o'zbek tiliga va ona tilimizdan boshqa tillarga tarjimaning umumiy va xususiy tomonlari aynan G'aybulla Salomov tomonidan asoslab berilgan ekan, unga munosib bo'lishimiz uchun domla tadqiqotlarini har bir tarjimashunos tadqiqotchining yaxshigina bilishi talab etiladi. Oliy Attestatsiya Komissiyasidan esa, tarjimashunoslikka oid ixtisoslashtirilgan shifrni faqat tarjimashunoslik uchun alohida joriy etishni tavsiya etgan bo'lardik.

tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan fi-
lologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan disser-
tatsiyasi